



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020- YILDA MADANIYAT MUASSASALARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Madaniyat – inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya kabi faoliyatlarda namoyon bo'ladi. Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning o'рни va ahamiyatini oshirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratadigan ustuvor vazifalardan biriga aylandi.





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XORAZM VILOYATIDAGI MUZEYLAR

Viloyatimizda 2020- yilda jami muzeylar soni 3 tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni 1 taga teng. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa 284,4 ming kishidan iborat bo'lib, ulardan o'quvchi va talabalar ulushi 30,7 % ni tashkil etgan.

2016-2020- yillarda faoliyat ko'rsatayotgan muzeylar soni, birlikda





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Bugungi kunda viloyatimiz muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar mavjud bo'lib, 2020- yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni 40,1 mingtani tashkil etgan. Noyob eksponatlar soni esa 1,1 mingtaga teng. Muzey eksponatlarining 0,5 mingtasi rassomlik, 0,3 mingtasi grafika, 2,7 mingtasi amaliy san'at, 16,6 mingtasi numizmatika, 1,5 mingtasi arxeologiya buyumlari, 1,9 mingtasi maishiy va etnografiya, 3,3 mingtasi suratlar, 5,5 mingtasi hujjatlar va 7,8 mingtasi boshqa eksponatlardan iborat.

XORAZM VILOYATIDAGI TEATRLAR

2020- yilda viloyatimizdagi jami teatrlar soni 2 tani tashkil etib, unda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) esa 644 tadan iborat. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 105,1 ming nafarni tashkil etgan.

Teatr faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Teatrlar soni, birlikda	2	2	2
Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni, ming kishi	139,3	208,0	105,1





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Viloyatimizdagi mavjud jami 2 ta teatrlar janri bo'yicha taqsimlanganida, 1 ta musiqali drama teatri va 1 ta bolalar uchun qo'g'irchoq teatri mavjud.

2020 yilda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) soni 644 tani tashkil etib, bepul namoyish etilgan spektakllar soni 32 tadan iborat .

2020- yilda jami teatr xodimlari soni 81 nafarga teng bo'lib, shundan ayollar ulushi 32,1 % (26 kishi)ni tashkil etgan.

XORAZM VILOYATIDAGI KONSERT TASHKILOTLARI

Viloyatimizda 2020- yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 1 ta. Konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 2019- yilda 134 tani tashkil etgan bo'lsa, 2020- yilga kelib esa konsertlar soni 50,0 % (67 ta) ga kamaygan. Shuningdek, tinglovchilar soni 2020- yilda jami 13,8 ming nafarga teng bo'lgan.





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2018-2020- yillarda konsert tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Konsert tashkilotlari soni, birlikda	1	1	1
Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar, ming kishi	56,0	66,1	13,8
Konsertlar soni, birlikda	124	134	67

2020- yilda jami 1 ta konsert tashkilotining faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanganida, filarmoniya – 1 tani tashkil etgan.

2020- yilda konsert tashkilotlarining umumiy shtatdagi artist xodimlari soni 46 kishidan iborat bo'lib, shundan, ayollar ulushi (25 nafar) jamiga nisbatan 56,8 % ni tashkil etgan.





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MADANIYAT VA DAM OLISH ISTIROHAT BOG'LARI

2020- yilda viloyatimizda jami 15 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqsimlanganida, eng ko'p madaniyat va istirohat bog'lari Urganch shahrida (3 ta) joylashgan. Bog'ot va Yangiariq tumanlarida -2 ta, qolgan hududlarda esa 1 tadan faoliyat ko'rsatgan. 2020- yilda istirohat bog'laridagi jami attraksionlar soni 32 tani tashkil etgan. Shundan, 28,1 % i Bog'ot tumani (9 ta attraksion), 25,0 % i Shovot tumani (8 ta), 21,9 % i Urganch shahri (7 ta) hissasiga to'g'ri kelmoqda.





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Madaniyat va istirohat bog'ları soni hududlar kesimida, birlikda

Urganch sh.	3	Hazorasp	1
Xiva sh.	1	Xonqa	1
Bog'ot	2	Shovot	1
Gurlan	1	Yangiariq	2
Qo 'shko'pir	1	Yangibozor	1
Urganch	1		

Madaniyat va istirohat bog'lariga jami tashrif buyurganlar soni 9,5 ming kishini tashkil etib, shundan tashrif buyuruvchilarning 51,6 % i bolalar (4,9 ming nafar) dan iborat. Qo'shko'pir tumani (6,0 ming nafar), Shovot tumani (2,0 ming nafar) tashrif buyuruvchilar bo'yicha yetakchi o'rinni egallagan.





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020- yilda madaniyat va istirohat bog'lariga tashriflar soni, ming kishi





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT MARKAZLARI

Madaniyat markazlarining faoliyatini yanada rivojlantirish, moddiytexnik bazasini mustahkamlash, ularning yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish, nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori tasdiqlandi.

2020- yilda madaniyat markazlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Madaniyat markazlarida jami 2 028 ta madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib, ulardan 27,5 % (557 ta) ommaviy, madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari, 51,1 % (1 037 ta) mavzuli, adabiy-badiiy kechalar, 5,2 % (106 ta) teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, 15,2 % (303 ta) konsertlar ulushiga to'g'ri keladi. O'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarga tashrif buyurganlarning umumiy soni 236,8 ming kishini tashkil etgan.





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

	Muassasalar soni, birlikda	Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, birlikda	Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etganlar, ming kishi
Urganch sh.	6	184	50,2
Xiva sh.	6	389	29,4
tumanlar :			
Bog'ot	3	359	51,3
Gurlan	7	67	7,4
Qo 'shko'pir	4	121	15,5
Urganch	5	74	1,7
Hazorasp	6	72	8,5
Tuproqqal'a	-	-	-
Xonqa	4	65	12,0
Xiva	4	392	35,9
Shovot	10	208	19,9
Yangiariq	5	3	0,2
Yangibozor	4	94	4,8

MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

KUTUBXONA FAOLIYATI

Xorazm viloyatida 2021- yil 1-yanvar holatiga kutubxona muassasalari soni 20 tani tashkil etadi: ulardan axborot-kutubxona markazlari 12 ta, ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari 6 ta, ko'zi ojizlar uchun kutubxonalar 1 ta va boshqa kutubxonalar 1 tani tashkil qiladi.

Kutubxona muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

	2016- y.	2017- y.	2018- y.	2019- y. **)	2020- y.**)
Kutubxona muassasalari soni, birlikda	167	167	166	22	20
Kutubxona fondi, ming nusxa	4 879,8	4 884	4 864,3	2 890,2	2 834,8
Foydalanuvchilar soni, ming kishi.	416,2	395,3	391	192	220,8

***)* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2019- yil 7- iyundagi PQ-4354-son qarori.

